



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I

2025-yil “22” oktabr

№ 690

Farg‘ona sh.

Talaba-yoshlar o‘rtasida
“Yosh kitobxon” tanlovini
o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan Maqsadli ko‘rsatkichlar (15-ilova) 17-pozitsiyasida belgilangan vazifalar ijrosi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 384-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida “Yosh kitobxon” tanlovini 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman) o‘tkazish to‘g‘risida”gi 384-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Talaba-yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish, kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag‘batlantirish maqsadida oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Yosh kitobxon” tanlovini (keyingi o‘rinlarda tanlov deb yuritiladi) qo‘shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman) o‘tkazilishi inobatga olinsin.

3. Tanlov universitet buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizom talablari va shartlari asosida o‘tkazilsin.

4. Tanlovlarni o‘tkazish bo‘yicha universitet Tashkiliy ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. **Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i D.G‘ulomovga:**

- tanlov haqida talabalarni xabardor qilish va o'tkazilishini muvofiqlashtirish;
- tanlovni nizom talabalariga muvofiq yuqori saviyada shaffof va adolatli o'tkazilishini tashkil etish;
- tanlovda talaba-yoshlarning o'z iqtidorini namoyon qilishiga sharoit yaratish;
- universitetda qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman tillarida tahsil oluvchi talabalar mavjudligini inobatga olgan holda, har bir til kesimida tanlovni yuqori saviyada tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

6. Bosh hisobchi U.Karabayevga tanlovni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda qoplash vazifasi yuklatilsin.

7. Matbuot kotibi N.Rahmonov talaba-yoshlar o'rtasida tanlovning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida universitetning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida tanlov haqida materiallarni berib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Ushbu buyruqning moliyaviy, huquqiy shaffofligi va ijrosini ta'minlash yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Z.Raximov hamda moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b O'.Teshajonov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 384-sonli buyrug'i.

Rektor



B.Shermuhammadov

Universitetning “___” _____dagi
_____ -sonli buyrug‘iga ilova

**Farg‘ona davlat universitetida talabalar o‘rtasida “Yosh kitobxon” tanlovini
o‘tkazish bo‘yicha universitet ishchi guruhi tarkibi
TARKIBI**

1.	Z.Rahimov	-	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, ishchi guruh raisi
2.	D.G‘ulomov	-	Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh raisi o‘rinbosari
A’zolar:			
3.	M.Mamajonov	-	Filologiya fakulteti dekani
4.	S.Mo‘minov	-	Tilshunoslik kafedrası professori
5.	R.Umrzoqov	-	Adabiyotshunoslik kafedrası dotsenti
6.	A.Turaxanov	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat bo‘limi boshlig‘i
7.	U.Karabayev	-	Universitet bosh hisobchisi
8.	N.Rahmonov	-	Universitet matbuot kotibi
9.	Fakultet dekanlari		

**Talaba-yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladigan
“Yosh kitobxon” tanlovining
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov universitet talaba-yoshlari o‘rtasida ma’naviy ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish, kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, targ‘ibot tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag‘batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

2. “Yosh kitobxon” tanlovida ta’lim yo‘nalishi, sohasi, mutaxassisligidan qat’iy nazar universitetdagi barcha fakultetlarda tahsil olayotgan talabalar jamoaviy ishtirok etadi.

3. Tanlovda talabalar-yoshlarning keng qamrovli ishtiroki universitetning yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektorlari tomonidan ta’minlanadi va muvofiqlashtiradi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning asosiy maqsadi talaba-yoshlar o‘rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini targ‘ib qilish orqali yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ularga kitob mutolaasi uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli yoshlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlashdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ‘ib etish;
- badiiy asarlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni hamda jamiyatimizda yuksak ma’naviyatni shakllantirish va mustahkamlashda shuningdek, badiiy asarlar roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;
- ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan badiiy asarlar bilan talaba-yoshlarni yaqindan tanishtirib borish, ularda kitobni mutolaa qilish, tahlil qilib, o‘zlarining mustaqil fikr bildirishga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- yoshlar o‘rtasida kitobxonlik harakati targ‘iboti ta’sirchanligini yanada oshirish;

- kitobning yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida talabalarning tasavvurlarini yanada boyitish;

iste'dodli va iqtidorli talabalarni rag'batlantirishdan iborat.

III. Ko'rik-tanlov shartlari va baholash mezonlari

6. Universitet talabalari o'rtasida "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish bo'yicha rektor (direktor) boshchiligida shoir-yozuvchilar, professor o'qituvchilar, hamkor tashkilotlar vakillari va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay'ati tuziladi.

7. Tanlov oliy ta'lim tashkilotida bir bosqichda fakultetlardan tuzilgan jamoalar ishtirokida tashkil etiladi.

8. Har bir jamoa 6 ta ishtirokchidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

a) 1-shart "Men yoqtirgan asar" sharti.

Bunda, ishtirokchi jamoaning faqat 1 nafar a'zosi tomonidan "Men yoqtirgan asar" nomi ostida o'zi sevib o'qigan asari bo'yicha qisqacha 3 daqiqa annotatsiya beradi. Hakamlar hay'ati ishtirokchilarning asarga tayyorlangan annotatsiyasini baholashda ularning yoqtirgan asarini o'qiganligini tekshiradi hamda mohiyatini to'g'ri tushungani va ifoda etib bera olish qobiliyati, asarning g'oyasi va mazmunining to'liq qamrab olinganligi, kitobxon tomonidan asarga munosabatning (tanqidiy yoki ijobiy) qiziqarli va jozibador tarzda bildirilganligi, annotatsiya matnida fikrni ifodalash uslubi, badiiy obrazlarning real hayot bilan bog'liq ibratli tomonlari ochib berilganligiga qarab ball beradi. Ushbu shart 1-10 ballgacha (maksimal 10 ball) baholanadi;

b) 2-shart "Eng kitobxon jamoa" savol-javob sharti.

Bunda, tanlov ishtirokchilari o'rtasida 20 nafar jadid ajdodlarimizning hayoti va ijodidan savol-javob o'tkaziladi. Barcha jamoalarga bir vaqtning o'zida bir xil savol beriladi. Jamoalar bergan javoblarini 1 daqiqa ichida blankka yozib berishlari kerak bo'ladi. Ushbu shart 1 ta savol uchun 2 balldan jami 40 ball bilan baholanadi.

Jamoalarning to'plagan ballari o'zaro teng kelib qolgan taqdirda 2-shart asosida qo'shimcha savollar beriladi va g'olib jamoa aniqlanadi.

9. 1-shartda Hakamlar hay'atining har bir a'zosi o'zining bahosini ochiq e'lon qiladi va asoslab beradi. Barcha a'zolarining qo'ygan ballari umumlashtirilib, ularning umumiy soniga bo'lingan holda 1-shart uchun o'rtacha ball chiqariladi.

10. Yakuniy ball – tanlovning ikkita sharti natijalari bo'yicha ishtirokchilarning to'plagan ballarini qo'shish ($10+40=50$ ball) asosida aniqlanadi.

IV. Tanlovni o'tkazish tartibi va muddatlari

11. Tanlovni o'tkazish bo'yicha ta'lim muassasasida Ishchi guruh tuziladi. Ishchi guruhga oliy ta'lim tashkilotining rektori (direktori) rahbarlik qiladi hamda yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

12. Tanlov har yili oktyabr oyining ikkinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

13. Tanlovning barcha ishtirokchilari fakultetlar tomonidan sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishi mumkin.

14. Tanlovning g'olib 1-, 2-, 3-o'rin jamoalari oliy ta'lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

1-o'rin – I darajali diplom, jamoaning har bir a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining uch barobari miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg'alari;

2-o'rin – II darajali diplom, jamoaning har bir a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining ikki barobari miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg'alari;

3-o'rin – III darajali diplom, jamoaning har bir a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining bir barobari miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

VI. Yakuniy qoidalar

15. Hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan o'rin yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

16. Tanlov jarayoni va natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va universitetning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib boriladi.